

# Web Sayt yaratish darslari noldan boshlab



- ✳ HTML darslari ommabop tarzda
- ✳ WebSite yaratish qadam- ba -qadam darslar.
- ✳ WebSiteni internetga joylash
- ✳ Shaxsiy Websayt qanday tayyorlanadi.
- ✳ Tayyor namuna fayllar
- ✳ WebSaytni bezatish

Email:[leonardo73@rambler.ru](mailto:leonardo73@rambler.ru)

## Bu kitob kim uchun ?

Sizning web saytingiz bormi ? Agar javobingiz “yo’q” bo’lsa, u holda siz o’qiyotgan bu kitob aynan SIZ uchundir.

Bu kitobim har kimga: yoshu –qari, xullas 7 yoshdan 70 yoshgacha bo’lgan sog’lom fikrleydigan har qanday odam uchun mo’ljallangan.

Siz hech bo’lmaganda Kompyuterni o’chirib yoqishni bilsangiz bo’ldi. Darslarni o’qib borish davomida anchagina malakangiz oshadi. Bu kitob keng ommaga mo’ljallangan.

Buni o’qish uchun sizdan oliy matematikani bilish talab qilinmaydi.

Bu darslikni har kim oson tushuna oladi.

Kitobni diqqat bilan o’qib aytilganlarni amalda bajarsangiz:

Natijada:

- ✓ HTML asoslarini o’rganasiz
- ✓ Web sayt yaratish siz uchun oson ishga aylanadi
- ✓ Shaxsiy websaytga ega bo’lasiz
- ✓ O’zingiz istagan malumotlarni internet olamiga joylashtirasiz
- ✓ Maqolalaringizni dunyoning istalgan joyidan o’qish mumkin bo’ladi
- ✓ Web Sayt orqali pul toppish usullari bilan tanishasiz

(Bularning bazilari kitobning 2-qismida yoziladi)

## Muallifdan ikki og’iz gap

Mendan so’rashadi: “Qanday qilib web sayt ochsam bo’ladi”... Mening javobim oddiy. Bir qancha rus tilidagi kitoblarni taklif etaman. Ammo bu kitoblar sizni teoriyalar , nazariyalar o’rmoniga adashtirib qo’yadi. Ularda amaliy namunalar kam uchraydi. Kompyuter texnologiyasiga oid deyarli barcha kitoblar rus, inglis va boshqa tillarda. O’zbek tilida bunday kitoblarni hali uchratmadim.

Yurtimizning viloyat hududlarida yashovchilar aksariyat rus tilini bilmaydilar. Ular kompyuter bilimlaridan xabarsiz qolishlari kerak emas. Shu maqsadda O’zimizning vatandoshlar uchun bu darslikni yozishga qaror qildim. Buni faqat boshlovchilar uchun yozmoqdaman. Darslarni hech narsani bilmaydigan odamlar ham oson o’rgana oladi

Kitobda ortiqcha teoriya yo’q, 90% amaliy (praktikada) ko’rsatiladi. Haqiqattan ham: Praktikasiz teoriya o’likdir.

Maqsadim, o’z bilimlarimni boshqalarga ham o’rgatib taraqqiyotga zarracha bo’lsa ham hissamni qo’shish. Hadisda aytilganki **“ilmni avvali o’rganish, so’ng yod olish, so’ng amal qilish, keyin uni boshqalarga o’rgatish”**

O’zim ham internetning turli saytlaridan turli kitoblar va darsliklar yuklab olaman, men yuklab olgan darsliklarim uchun uning muallifiga pul to’lagan emasman, chunki hozir millonlab saytlar bepul o’quv qo’llanmalar bilan to’la. Men ulardan ko’p foydali malumotlar yuklab olganman. Shuni hisobga olib bir narsani eslayman: “Odam faqat istemolchi bo’lishi kerak emas, u yaratuvchi ham bo’lishi kerak. ” Shu maqsadda o’zimdan keyingilar ham ushbu bilimlardan foydalansin deb ishga kirishdim...

Agar sizda ushbu kitob va undagi darslar yuzasidan savol bo’lsa ushbu emailga yuboring:

[leonardo73@rambler.ru](mailto:leonardo73@rambler.ru) maktubingiz sarlavhasini “Web sayt yaratish kitobi bo’yicha ”deb nomlang

**Diqqat:** sizga taqdim etilayotgan darslar Websaytga matn yozish va uni bezatish haqida bo'ladi. Agar boshlang'ich darslarni tashlab ketsangiz u holda keyingiz darslarni o'rganish siz uchun juda qiyin kechadi. Hech shoshilmay har bir darsni diqqat bilan o'qing va bajarib

## 1-DARS

### Nimadan boshlaymiz ?


Biz avval praktika (amaliyot)da bajarib keyin esa uni tahlil qilib tushuntiramiz. Biz uchun amaliyot 1-o'rinda.

Siz Kompyuterni ishlatishni bilasiz. Kompyuteringizga Windows operatsion tizimi o'rnatilgan. Demak ishga kirishdik. Bloknot (Notepad)ni ochamiz, Buning uchun


Start (Пуск) => All programs(Все программы) => Стандартные => Notepad (блокнот)

Bloknotni ushbu usulda ham ochish mumkin:


Sichqoncha tugmasini o'ng tomonini kompyuter ish stoliga bosasiz => New (создать) => => Notepad (блокнот).



Yoki 2-usulda esa mana bunday (rasmga qarang)




Sizga birinchi usulni maslahat beramiz.  
Xullas Bloknot ochildi: (rasmga q.)




Endi bloknatga ushbu kodlarni yozamiz:

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>
Salom Hammaga Bu mening birinchi sahifam
</body>
</html>
```


Mana bu rasmga qarang (rasm)



Endi buni Web sahifa ko'rinishida saqlashimiz kerak. Buning uchun:  
Bloknot oynasidagi **File (Файл) => Save as (Сохранить как)** ni bosamiz (rasmga q.)




Fayl nomini **index.html** deb nomlaymiz va **Save (Сохранить)** ni bosib kerakli joyga saqlaymiz (rasmga q.)



Endi saqlangan faylimiz ko'rinishi o'zgardi. Fayl Ko'rinishi internet fayli kabi bo'ladi. Masalan menda Opera ko'rinishida bo'ldi.

Endi faylimizni ochamiz , Masalan mening Opera browserimda mana bunday ko'rindi (rasm)



**Eslatma !** Siz har doim internetga kirish uchun qaysidir Browserdan foydalanasiz... Eng keng tarqalgan browserlar **Internet Explorer, Opera, FireFox.**

Endi sizga bajargan ishimizni tushintirib bersam.

## Tushuntirish:

Biz yuqorida yozgan kodimizni tushintiramiz, Siz yozgan kod **html** tilida yozilgan bo'lib kodning eng sodda ko'rinishi edi.

Internetdagi barcha saytlar **html** tilida qilinadi. **HTML** bu (**H**yper **T**ext **M**arquee **L**anguage) Gipermatnni belgilash tili. Bu til WebSaytni yaratadigan til bo'lib Saytga turli elementlar (rasm matn, jadval,) joylaydi va ularni rangi ko'rinishini belgilaydi. Xullas har qanday websayt html asosida tayyorlanadi.

Bu tilda yozilgan sahifa nomiga **.html** fayl kengaytmasi yoziladi masalan **fayl\_nomi.html**

HTML dagi kodlar `< va >` belgilari oralig'ida yoziladi. Kodlarni nomini **teg** deb ataymiz

Html teglari deganda `< va >` belgilari orasidagi kod tushuniladi.

Html teglari avval ochiladi va yopiladi

`<html>` ochiladigan teg

`</html>` yopuvchi teg

`<html>` sahifani ochish. Bu kod web sahifani eng yuqori qismida yoziladi

`<head>` sahifani bosh qismi

`<title>` Sahifamiz sarlavhasi

Bu yerda saytimiz sarlavhasi yoziladi

`</title>` Sarlavha yopildi

`</head>` sahifani bosh qismi yopildi

`<body>` sahifani tana qismi ochildi

Bu yerda sahifani asosiy qismi (matn, rasm...) qo'yiladi

`</body>` sahifani tana qismi yopildi

`</html>` sahifa butunlay yopildi. Bu kod eng pastki qismga yoziladi

**Diqqat !** hech qachon teglar orsada bo'sh joy (probel) qolmasin. masalan `< body >`- bu xato !!!

`<body>` - bu to'g'ri.


**Eslatma !** Etibor bergan bo'lsangiz `<title>` va `</title>` orasidagi matn sahifani sarlavhasi bo'ladi.

Ushbu rasmda ko'rsatilgan joyda ko'rinadi. `<title>` bosh sahifa `</title>`



Sahifamizning qolgan barcha matn, rasm, knopka va boshqa elementlari `<body>` va `</body>` teglari orasiga joylanishi kerak.

Siz bloknotni web sahifa ko'rinishda saqladingiz. Endi u html fayli ( web sahifa fayliga) aylandi. Agar siz saqlagan html faylingizga biror o'zgartirish kiritmoqchi bo'lsangiz, buning uchun Faylga sichqonchani o'ng tugmasi bilan bosing va bloknot orqali oching (rasmga q.)



Kerakli joyiga o'zgartirish kiritgandan so'ng **File(Файл)**=>**Save(сохранить)** ni bosing

## 2-DARS

### Saytimizga matn yozamiz

Hozircha bizning saytimiz matndan iborat bo'ladi. Keyingiz darslarda esa rasm va boshqa elementlar qo'yishni o'rganamiz.

Demak biz saytimizga matn va uning sarlavhasini yozamiz Hamda matnni qismlarga bo'lamiz. Ya'ni abzats (pragraf)ga bo'lamiz...

Bloknotni oching:

Mana bu kodni yozing:

```
<html>
<head>
<title>Mening saytim</title>
</head>
<body>

<h1>Mening sarlavham</h1>
```

Salom hammaga bu mening birinchi saytim, bu yerga turli istalgan matn yoziladi. istasangiz bu matnlarni o'zgartiring. Bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn. Salom hammaga bu mening birinchi saytim, bu yerga turli istalgan matn yoziladi. istasangiz bu matnlarni o'zgartiring. Bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn. Salom hammaga bu mening birinchi saytim, bu yerga turli istalgan matn yoziladi. istasangiz bu matnlarni o'zgartiring. Bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn.

```
<p>
```

Bu esa yangi qatordan boshlangan matn istasangiz buni o'zgartiring bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn. Bu esa yangi qatordan boshlangan matn istasangiz buni o'zgartiring bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn. Bu esa yangi qatordan boshlangan matn istasangiz buni o'zgartiring bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn



## <h2>Kichik sarlavha</h2>

Bu esa yangi qatordan boshlangan matn istasangiz buni o'zgartiring bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn. Bu esa yangi qatordan boshlangan matn istasangiz buni o'zgartiring bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn. Bu esa yangi qatordan boshlangan matn istasangiz buni o'zgartiring bu shunchaki tekshirish uchun yozilgan matn

</body>  
</html>

Bloknotni Web sahifa ko'rinishda saqlaymiz. 1-darsda aytilgandek Bloknot oynasidagi

**File (Файл) => Save as (Сохранить как)** ni bosamiz

Faylga nom qo'yamiz va .(nuqta) html deb nomlaymiz. Masalan *faylnomi.html*

Keyin kerakli joyga saqlash uchun **Save (Сохранить)** ni bosamiz.

Saqlangan faylni ochamiz

Mana saytimiz ko'rinishi: (rasmga q.)



### Tushuntirish:

Biz yuqorida bir nechta yangi teg (kod)lar yozdik. Ularni tushuntiramiz.

<h1> </h1> - oraligida yozilgan matn qalin va katta ko'rinadi. Asosan sarlavha uchun ishlatiladi.

<h2> </h2> - bu ham yuqoridagidek bo'lib <h1> dan biroz kichik sarlavha ko'rsatadi.

Mana bunday

<H1> текст </H1>

**<H2> текст </H2>**

**<H3> текст </H3>**

**<H4> текст </H4>**

**<H5> текст </H5>**

**<H6> текст </H6>**

Sayingizga kirgan odam birinchi avval uning sarlavhasiga nazar soladi. Sarlavhani asosan <h1> yoki <h2> kattaligida qilgan maqul

Sahifadagi <p> degan tegi (kod desak ham bo'ladi) ham mavjud

**<p>** Bu teg (kod) matni yangi qatordan yozish uchun qo'yiladi.

## 3-DARS

### Saytimizga Chiroyli matn yozamiz

Matn yozish oson, muhimi uni chiroyli va tushunarli yozish kerak. Qanday qilib chiroyli yozamiz ?, Matndagi asosiy so'zlar-ni qalin shriftida, sarlavhani katta harflarda va o'rtida yozish kerak. Ba'zan matni o'ng yoki chap tarafga moslab yozish zarur bo'ladi. Bazida kerakli gapni tagiga chizib yozish zarur bo'ladi. Ushbu darsda biz ana shunday chiroyli matn yozishni o'rganamiz

Men sizga namuna sifatida bitta matni ko'rsataman.

Bloknotni oching. (bloknotni qanday ochilishi 1-darsda aytilgan edi)

Mana bularni yozing. (tayyor fayl ham mavjud. uni olish uchun ushbu kitob joylanan arxiv faylining "namuna" papkasi ichidagi "3-dars" nomli html faylini ochishingiz mumkin. Tayyor faylni o'zgartirish uchun uni bloknot orqali ochib o'zgartiring. Bu haqda 1-darsda batafsil aytilgan)

```
<html>
<head>
<title>Qadimgi olimlar</title>
</head>
<body>
```

```
<h1 align="center">Fanga hissa qo'shgan olimlar</h1>
<b>Olim kim ?</b>
```

```
<p align="center">
Olimlar atrofni, dunyoni, olamni va undagi narsalarni o'rganadi. Olimlar o'zlariga o'zlari savol beradilar va shu savollarga o'zlarining tajriba va kuzatishlari natijasida javob izlaydilar. olimlar turli xil sohalarda faoliyat yuritadilar, ammo shunday olimlar ham borki ular aynan bir sohani emas , balki turli sohalarni egallay oladi, ular serqirra yoki har tomonlama ijodkordir.
</p>
```

```
<p>
```

```
<b>Qadimgi yunonistonda ilm-fan</b> <br>
```

Olimlar hayotidan lavhalar <br>  
Qadimgi yunonlar ilmiy bilimlarni juda qadrlashgan. bu holat ularning avlodlarini ham hayratda qoldirgan. <br>  
Eng mashhur yunon olimlaridan biri <b>Arximed</b> bo'lgan, u jismlarning suzish qonunini kashf qilgan.  
Keyinchalik bu qonun uning nomi bilan <u>"Arximed qonuni"</u> deb ataldi. <br>  
Pifagor (sharqda-Fisog'urs nomi bilan atalgan) o'sha davrning eng yirik matemati, boshqacha aytganda geomatr bo'lgan va o'zining teoremlarini kashf etdi, jumladan "pifagor teoremasi" yoki "Pifagor jadvali " hozirgi kunda hammaga ma'lim bo'lsa kerak.

<p>

<b><i>Bazi bir olimlarning ismlari</i></b><br>

Arximed, <br>

Aristotel, <br>

Pifagor , <br>

Platon, <br>

Suqrot <br>

<i>va boshqa yunon allomalari haqida </i>

<p align="right"><i>Muallif:</i> <b>V. Muslim</b> </p>

</body>

</html>

Bloknotni .html fayl ko'rinishida saqlaymiz. Masalan **fayl\_nomi.html** deymiz

Mana bu rasmda Web sahifani ko'rinishini tomosha qiling: (rasm)



**Tushuntirish:**

Biz yuqorida bir qancha sizga nomalum teglarni ishlatdik. Keling, endi ularni nima vazifa bajarishini ko'rib chiqsak.

`<h1 align="center">Sarlavhani O'rtaga joylaydi </h1>` bundan tashqari sarlavhani chap yoki o'ng tomonga ham joylash mumkin. Buning uchun align iborasi va = tenglik belgisi, undan so'ng " " qo'shtirnoq orasiga left yoki right yoki center iborasi yoziladi.

Masalan:

`<h1 align="center"> Sarlavhani O'rtaga joylaydi </h1>`

`<h1 align="left"> Sarlavhani chapga joylaydi </h1>`

`<h1 align="right"> Sarlavhani O'ng tomonga joylaydi </h1>`

Ushbu **align** iborasi odatda atribut deb ataladi. Buni ko'p teglar uchun qo'llash mumkin.

Bu atributni biz juda ko'p joylarda qo'llashimiz mumkin. Siz ushbu atributni yaxshilab esda saqlang. Chunki bu hali ko'p asqotadi.

Demak align atributini 3xil xususiyati bor left, right, va center.

**align="center"**

**align="left"**

**align="right"**

Masalan:

`<p align="center"> Bu teglar orasidagi matn sahifa o'rtasiga joylanadi </p>`

`<p align="left"> Bu teglar orasidagi matn sahifa chap tomoniga joylanadi </p>`

`<p align="right"> Bu teglar orasidagi matn sahifa o'ng tomoniga joylanadi </p>`

Matnni bazi joylarini qalin harflarda yozish uchun `<b>` tegidan foydalandik

Qiyshiq yozish uchun `<i>` tegi ishlatiladi

Matnni tagiga chizish uchun `<u>` tegi ishlatiladi

Demak:

`<b>Bu qalin matn </b>`

`<i>Bu qiyshiq matn </i>`

`<u> Tagiga chizilgan matn </u>`

Agar biror matnni ham qalin ham qiyshaygan qilmoqchi bo'lsangiz mana bunday tartibda bajariladi:

`<b><i><u>Bu qalin va qiyshiq matn</u></i></b>`

Agar matnni qalin hamda qiyshaygan va tagiga chizilgan qilmoqchi bo'lsak mana bunday bo'ladi:

`<b><i><u>Bu qalin va qiyshiq va tagi chizilgan matn </u></i></b>`

Matnni bazi gapni yangi qatordan boshlash kerak bo'ladi. Buning uchun `<br>` tegi ishlatiladi.

Buning `<p>` tegidan farqi shuki. `<br>` qator tashlamasdan yangi qatordan matnni boshlaydi

`<p>` esa mutlaqo yangi abzasdan boshlaydi .

Har qanday websaytga albatta matn yoziladi. Matn yozishda uni o'quvchi uchun tushunarli yozish zarur.

Ya'ni har bir mavzuni alohida ajratib, sarlavhani kattaroq harflarda. Bazi joylarni kichikroq va hokazo usulda yozish kerak. Agar bunday qilmasangiz siz yozgan matnni o'qish zerikarli bo'ladi.

Matnni kerakli joyini alohida ranglar bilan ajratib yozish ham mumkin. bu esa o'quvchini o'ziga jalb etadi...

Keyingi darsimiz esa aynan shu haqda. Web sahifamizdagi matnlarni chiroyli ranglarda yozish.

# 4-DARS

## Qanday qilib matnni rangi, shrifti va hajmini o'zgartirish mumkin ?

Biz yozadigan matnning shrifti va rangi va hajmini o'zgartirish uchun **<font>** tegidan foydalanamiz. Matnni rang bilan bezatish uchun **color** degan atribut ishlatiladi. **<font>** tegi ichiga **color="rang\_nomi"** degan atribut yoziladi.

Keling, bitta namuna ko'rsatsam:

Marhamat qilib bloknotni oching va mana bu kodlarni yozing:

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>

<font color="red">Salom bu qizil matn</font>

</body>
</html>
```


Bloknotni Web sahifa ko'rinishda saqlaymiz. 1-darsda aytilgandek Bloknot oynasidagi **File (Файл)=> Save as (Сохранить как)** ni bosamiz

Faylga nom qo'yamiz va .(nuqta) html deb nomlaymiz. Masalan faylnomi.html

Keyin kerakli joyga saqlash uchun **Save (Сохранить как)** ni bosamiz.

Saqlangan faylni ochamiz.

Mana u bunday ko'rinadi (rasm)



Matnni qanday ranglar bilan yozish mumkin ? istalgan rangda yozish mumkin

Buning uchun **color=** dan so'ng rang nomini yoki kodini kiritish kifoya

Har bir rangning o'z nomi va kodi mavjud. Biz yuqorida yozgan qizil rang nomi **red** deb ataladi. Uning codi esa **#FF0000** deb qabul qilingan

Istasangiz rangni nomi bilan yozing, istasangiz kod bilan belgilang

Masalan sizga qizil rangini kod bilan belgilashni ko'rsataman:

```
<font color="#FF0000" >Salom bu qizil matn</font>
```

Bunda ham avvalgidek qizil rangli matn ko'rinadi.

Ranglar nomi va kodi

O'zbekcha nomi	nomi	kodi
Ko'k	blue	#0000FF
Qizil	red	#FF0000
Yashil	green	#008000
Kulrang	gray	#808080
Oq	white	#FFFFFF
Sariq	yellow	#FFFF00
Yaltiroq	silver	#C0C0C0
Qora	black	#000000
Akva	aqua	#00FFFF
To'q yashil		#00CC00
Olov rang		#FF6600
To'q qizil		#990000
Binafsha		#3300FF
To'q ko'k		#000099
Jigarrang		#660000
		Va boshqalar

Sizga maslahatim ranglarni kodi bilan yozish afzal.

Sizga yana bitta namuna ko'rsataman

Web sahifangiz sarlavhasini yashil rang bilan yozamiz

Bloknotni oching mana bu kodi yozing, keyin bloknotni fayl\_nomi.html deb saqlang

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>
<h1><font color="#00CC00"> Mening Shaxsiy Sahifam </font></h1>
<font color="#990000">Xush kelibsiz sahifamga </font>
</body>
</html>
```

Endi saqlangan faylni oching

Bu menda mana bunday ko'rindi (rasm)



## Matn hajmi kattaligi

Yozuvnu hajmini belgilash uchun <font> tegiga size degan buyruqni (ya'ni atributni) qo'shamiz  
Va = belgisidan keyin kerakli sonni yozamiz

Sizga mana tayyor namuna:

<font size="1"> Matn kattaligi mana bunday </font>

<font size="2"> Matn kattaligi mana bunday </font>

<font size="3"> Matn kattaligi mana bunday </font>

<font size="4"> Matn kattaligi mana bunday </font>

<font size="5"> Matn kattaligi mana bunday </font>

<font size="6"> Matn kattaligi mana bunday </font>

<font size="7"> Matn kattaligi mana bunday </font>

## Matn shrifti qanday o'zgartiriladi ?

Agarda siz shriftni tanlamasangiz web saytingizdagi yozuvlaringiz Times New roman shriftida yoziladi. Bu shriftni o'zgartirish uchun <font> tegi ichiga **face** degan atributni qo'shamiz va shrift nomini yozamiz  
Masalan:

<font face="arial"> Bu matn arial shriftida yozildi </font>

Agar Verdana shriftida yozsak mana bunday

<font face="Verdana"> Bu matn verdana shriftida yozildi </font>

Mana bu matn esa Comic sans shriftida yozildi...

<font face="Comic Sans MS"> Bu matn Comic sans shriftida yozildi </font>

Biror matn yozib uning shriftini va hajmini va rangini o'zgartirsak bo'ladi. Masalan Biror matn yozib uning shriftini arial, hajmini 5 va rangini qizil qilib belgilaymiz.

Mana bu quyidagicha bo'ladi:

<font face="Arial" size="5" color="#CC0000"> Bu yerga matn yozamiz </font>

## Endi amaliyotni boshlaymiz

Namuna sifatida Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz yozilgan shaxsiy sayt yaratamiz:  
Marhamat qilib bloknotni oching va mana bu kodlarni yozing:

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>

<h1 align="center"><font color="#0000FF">Xush kelibsiz mening Web Saytinga</font></h1>
<p align="center">Falonchanning shaxsiy web sahifasi</p>
<font face="Verdana" size="5" >Mening ismim Falonchaev Pismadoncha</font><br>

<font color="#990000">Bu saytda men o'zim haqidagi ma'lumotlarni yozaman,<br>
Bu ma'lumotlar faqat menga tegishli <br>
Marhamat men bilan tanishing.<br>
</font>

<p>
<i>Shaxsiy ma'lumotlar</i>
<p>
<b>ism shrifim:</b> Falonchaev Pismadoncha<br>
<b>Tug'ilgan shahrim: </b>Ertaklar mamlakati<br>
<b>Tug'ilgan yilim: </b> milodiy 1950-yil<br>
<b>Millatim:</b> O'zbek, Tojik, Qozoq, Rus va hkz<br>
<b>Turar joyim :</b> Susambil<br>
<p>
<i>Men bilan bog'lanish</i>
<p>
<b>Telefon: </b> +12334 1234567<br>
<b>Website: </b> www.ijod.org <br>
<b>Fax: </b> +12334 1234567<br>
<b>Email: </b> leonardo73@rambler.ru <br>

</body>
</html>
```

Bloknotni html fayl holida saqlang. (Saqlash haqida 1-darsda batafsil aytilgan) Keyin esa ochib ko'ring:

(Tayyor faylni ko'rish uchun ushbu kitob papkasining ichidagi namuna papkasi 4-dars nomli html faylni ochishingiz mumkin)



Menda mana bunday ko'rindi. Sizda ham shunday bo'lishi kerak, Agar to'ri bajargan bo'lsangiz (rasmga q.)



Siz o'ylayotgandirsiz: "Bu juda oddiy sayt-ku, qachon haqiqiy chiroyli websayt qilishni o'rganaman." –deb.

Shoshilmang !!!, Hammasi shundan boshlanadi. Bu darslar sizga asosiy poydevor. Siz internetga kirganda ko'radigan chiroyli saytlar ham ana shu sizga o'rgatilayotgan qoidalar asosida qilingan.

Darslarni qunt bilan o'qisangiz. Siz ham ana shunday chiroyli rang-ba-rang haqiqiy websayt yarata oladigan darajaga erishasiz.

# 5-DARS

## Qanday qilib

### Web saytga rasm joylash mumkin ?

Websaytga rasm joylash bu eng muhim vazifalardan biri. Siz birorta saytni rasmsiz tasavvur qilib ko'ring. Quruq tekstdan iborat saytni kim ko'rgisi keladi. Saytni jonlantirish uchun unga mos rasmni tanlay olish kerak.

Rasm uchun mana bu teg ishlatiladi.

``

Bu sizga qandaydir g'alati so'zga o'xshayapti. Balkim qandaydir abrakadabra ekan deb o'ylayapsiz, shundaymi ?

Keling sizga buni tushuntirishga harakat qilsam: `<img>` bu inglischda image- tasvir so'zining qisqartmasi. `src` -bu inglischda source ya'ni resurs degani.

``

Rasmlar asosan **jpg, gif, png, bmp** formatlarda bo'ladi.

Endi amaliyotga o'tamiz:

Birorta .jpg formatdagi rasm tanlaymiz. Masalan men ushbu rasmimni tanladim.

Bu rasmni nomin **samalyot** deb nomladim, uning formati **.jpg** (rasmga q.)



demak **samalyot.jpg** rasmini web sahifamga qo'yishim kerak

O'zimizning sevimli bloknotni ochamiz va mana buni yozamiz


```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>
Salom bu mening samalyotimni rasmi<br>

</body>
</html>
```

Buni rasm.html deb nomlab kompyuterga saqlaymiz.

Endi samalyot.jpg rasmini shu sahifa ya'ni rasm.html turgan papkaga joylayman. Boshqacha aytganda, rasm.html va samalyot.jpg fayllari bitta joyda bo'lishi kerak. Yoki ikkovi ham ish stolida bo'lishi kerak.


Mana ular menda bunday turibdi (rasmga q.)



Endi rasm deb nomlangan web sahifamizni ochamiz.

Mana u (rasmga q.)


(tayyor faylni ko'rish uchun namuna degan papkadagi rasm.html faylni oching)



Endi savol tug'iladi: Agar rasm fayli boshqa papkda bo'lsa-chi? U holda biz o'sha rasm joylashgan manzilni ko'rsatishimiz kerak. Masalan

Agarda samalyot.jpg fayli rasmlar degan papka ichida deylik.

Mana bu rasmdagidek (rasmga q.)



Bunda rasmni web sahifada ko'rsatish uchun mana bunday yoziladi

```

```

Xullas, papka ichidagi faylga yo'naltirish uchun ushbu / belgi qo'ladi

UNUTMANG: rasm formati nomi katta yoki kichik harfda yozilganiga etibor bering. Masalan .jpg va .JPG bular sizni chalg'itishi mumkin. iloji boricha rasm faylida ham va htmlda ham kichik harflar ishlatiladi. Ko'p odamlar katta va kichik harflarni bir xil deb ishlatadi. Keyinchalik muammo kelib chiqadi. Sahifasidagi rasm ko'rinmay qoladi.

## Rasmni eni va bo'yini belgilash

Yuqoridagi samalyot rasmini web sahifamizda eni va boini belgilaymiz.

Buning uchun 2 xil atribut ishlatiladi

Width – eni

Height- bo'yi

```

```

Eni va bo'yi o'lchami pixelda hisobga olinadi.

Masalan yuqoridagi rasm.html web sahifamizdagi samalyot rasmini o'zgartiramiz


Uning eni 300 va bo'yi esa 100 pixel bo'lsin.

Mana tayyor o'zgartirilgan kod. Bloknotni oching va buni yozib saqlang.

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>
Salom bu mening samalyotimni rasmi<br>

</body>
</html>
```

Endi u mana bunday ko'rinadi (rasmga q.)



## Rasmni sahifani kerakli tomoniga joylash

Esingizda bo'lsa biz yuqorida 3-darsda **align=""** atributi haqida gapirgan edik. Uning vazifasi kerakli. Uni biz rasmni joylashda ham ishlatsak bo'ladi.

Masalan

`` bunda rasm web saytni o'ng tomonida joylanadi.

`` sahifani chap tomoniga joylanadi

`` Bunda matn rasmni o'rtasidan boshlanadi (bu muhim emas)

## Rasmni chegarasi

Rasm atrofiga ramka chizish ham mumkin. Buning uhcun `<img>` tegi ichiga `border=""` ni kiritish kifoya. Masalan, qalinligi 5 pixel bo'lgan chegarani belgilamoqchi bo'lsak mana bunday yozamiz

``

Mana buning ko'rinishi rasm atrofida qora ramka (rasmga q.)



Siz web saytingizda rasmning o'lchami, uni joylashi va chegarasini belgilamoqchi bo'lsangiz ularni ketma- ket `<img>` tegi orasiga yozishingiz kifoya.

Masalan:

``

Demak bunda, rasm eni 300 va bo'yi 200, rasm sahifani o'ng tomonida, chegara qalinligi 5 pixel.



Sahifamiz mana bunday ko'rinadi:



Agar sizda tushunmovchilik yoki savol hosil bo'lsa... Muallifdan so'rashingiz mumkin, mana bu muallifning sayti

[www.vosidiy.ijod.org](http://www.vosidiy.ijod.org) – shaxsiy sayt

[www.my.ijod.org](http://www.my.ijod.org) – portfolio - bajarilgan ishlarim sayti.

Email. [Leonardo73@rambler.ru](mailto:Leonardo73@rambler.ru)

# 6-DARS

## Qanday qilib saytni bezatish mumkin ?

Shuncha paytgacha siz bilan oddiy saytlar yaratdik, ammo ular juda oddiy edi. Ularda fon ham yo'q edi. Va boshqa birorta bezak ham yo'q edi.

Mana endi yanada chiroyli sahifa yaratamiz:

Demak avval saytga fon qoishdan boshlaymiz

### Sayt fon rangini belgilash

Sahifaning fon rangi odatda oq bo'ladi. Uni siz o'zingiz istagan rang bilan almashtirishingiz mumkin. Buning uchun <body> tegi ichiga bgcolor=" " buyruqini yozish kerak va qo'shtirnoq orasiga esa kerakli rang kodini yozamiz

Misol keltiraman:


Bloknotni ochib mana bu kodni yozing va uni html fayl qilib saqlang. Html fayl qilib saqlashni avvalgi darslarda aytib o'tdim. Ha-deb takrorlash jonga tegdi.

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body bgcolor="#9FD1F7">
```

Salom Bu sahifa foni ko'k rangda

```
</body>
</html>
```

Bunda web saytimiz mana bunday ko'rinadi (rasmga q.)






Yana bitta namuna ko'rsataman. Saytimizni foni to'q rang va yozuvlar esa oq ro'ng bo'lsin deylik  
Mana tayyor kod:

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body bgcolor="#006633">
<font color="#FFFFFF">Salom Bu sahifa foni to'q yashil rangda yozuv esa oq rangda</font>
</body>
</html>
```

Buning ko'rinishi mana bunday (rasmga q.)



## Web saytda Ajoyib chiziq chizish

Web saytingizda bazi tekstlarni chiziq bilan ajratishga to'g'ri keladi.

Buning uchun mana bu `<hr>` tegi ishlatiladi

Misol keltirsam

Mana bu kodni bloknoktga yozib web sahifa qilib saqlang.

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>
```


Bu matn chiziqdan yuqorida

```
<hr>
```

Bu chiziqdan pastdagi matn

```
</body>
</html>
```

Bu mana bunday ko'rinadi (rasmga q.)



Istasangiz bu chiziqning rangini uzunligini va qalinligini istagandek qilib belgilash mumkin

Masalan

`<hr size="5">` - bunda chiziq qalinligi 5 pixel bo'ladi (istasangiz qo'shtirnoq orasiga boshqa son yozing)

`<hr color="#003399">` bunda chiziq rangi to'q ko'k bo'ladi (istasangiz boshqa rang yozing)

`<hr width="500">` chiziq uzunligi 500 pixel (istagandek uzunlikni belgilash mumkin)

`<hr color="#003399" size="5" width="500">` Bunda esa chiziq ko'k va qalinligi 5 pixel, uzunligi esa 500 pixel bo'ladi.

Bu chiziq odatda saytimizning o'rtasida ko'rinadi. Istasangiz uni chap yoki o'ng tomonda joylashingiz mumkin.

Buning uchun

`align="left"` yoki `align="right"` ishlatiladi.

Masalan

`<hr size="5" width="600" align="left">` chiziq chap tomonda

`<hr size="5" width="600" align="right">` chiziq o'ng tomonda

`<hr size="5" width="600" align="center">` chiziq o'rtada

## Web sahifadagi matn va rasmlarni markazda joylashning yana bir usuli

Siz yodingizda bo'lsa matnni yoki boshqa elementlarni sahifani markaziga qo'yish uchun ushbu `<align= "center">` buyruqidan foydalangan edik...

Buni yana bir usuli ham bor

**`<center>`** va **`</center>`** ana shu ikki teg orasiga qo'lgan har qanday narsa (rasm, matn) saytingizni o'rtasida ko'rinadi.


Masalan mana bu kodni tekshirib ko'ring. (bloknotni ochish va saqlash haqida boshqa gapirmayman, buni o'zingiz bilasiz)

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body>

<center>
Assalomu alaykum <br>
Salom bu matn sahifani o'rtasida
</center>

</body>
</html>
```

Mana buning ko'rinishi (rasmga q.)



## Amaliyot (praktika)

Endi shu paytgacha olgan bilimlarimizni ishga solib bitta chiroyliroq Sayt yaratamiz...  
Bloknotni ochib mana bu kodni yozing. Keyin esa har doimgidek fayl\_nomi.html deb saqlang  
(Matndagi kerakli joylarni o'zgartirishingiz mumkin.)

```
<html>
<head>
<title>Bosh sahifa</title>
</head>
<body bgcolor="#00CCFF">

<center>

<h1><font color="#990000" face="Verdana">Xush kelibsiz mening shaxsiy web saytimga </font></h1>
<h3>Falonchaev pismadonchanning shaxsiy web sahifasi </h3>
</center>

<hr color="#00FF00" size="4">
<p align="center">
<font size="4" color="#000099">Bosh sahifa || Men haqimda || Mening ijodim Rasmlar || Men bilan bog'lanish
</font>
</p>
<hr width="500">
<h4 align="center">Men haqimda</h4>


<i>Bu yerda men haimda malumotlarni o'qishingiz mumkin marhamat</i><br>
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst Tekst
<p>
<b>Tashrifingiz uchun rahmat. Ko'rishguncha xayr</b>
</p>
<hr>
<p align="right">Tayyorlandi: <b> V. Muslim </b>tomonidan. <br>
email: leonardo73@rambler.ru</p>

</body>
</html>
```

Endi sytimizni ochib ko'ramiz. Mana u qanday ajoyib qo'rinmoqda (rasmga q.)  
Tayyor namuna faylni ko'rish uchun: namuna papkasi ichidagi 6-dars nomli papkaga kiring



Siz faqat shu bilan cheklanib qolmasdan. O'zingiz mustaqil sayt qilishga harakat qiling. Ranglarni o'zgartiring. Qo'shimcha tekstlar qo'shing va hokazo...

# 7-DARS

## Web saytni internetga joylash

Nihoyat, tayyor web sahifamizni hamma ko'ra olish uchun internetga joylash vaqti ham keldi.

Endi sizni saytingizni dunyoning istalgan burchagidan ko'rish mumkin.

Sizga ushbu darsda saytingizni bepul yo'l bilan internetga joylashni ko'rsataman. Nega bu bepul deb o'ylayotgandirsiz... Ha, internetdagi ko'pchilik saytlar sizning saytingizni joylash uchun bepul joy beradi...

Web saytni internetga joylash uchun olinadigan joy –**hosting** deb ataladi. Bu joy bir necha MB yoki GB bo'lishi mumkin.

Hosting sizning fayllaringizni internetda saqlovchi maxsus server kompyuterdir. Bunday Kompyuterlar kechayu kunduz ishlaydi. Bunday xizmatlarni asosan provayderlar bajaradi...

Hosting xizmatlari aslida pullik. Ammo uning bepul turlari ham bor...

Pulli hosting va Bepul hosting orasida qanday farq bor ? Pulli hostinglarni xizmati nimasi afzal ? degan savol hosil bo'ladi

Bu savolga kitobning 2-qismidan javob olasiz...(kitobni 2-qismini yuklab olish haqida ushbu kitobning xulosa qismida yozilgan)

Bizning saytimiz hozircha kompyuterda. Saytimiz nomini **index** deb nomlaymiz. Nimaga aynan index. ? Diqqat qiling !!!

Siz internetga (aniqrog'i hostingga) bir nechta sahifalar va rasmlar joylashtirasiz. Bunda hosting sizning saytingiz fayllarini saqlaydi. Saytingizga kimdir kirganda qaysi fayl ko'rsatilishi kerak ?

Misol uchun sizning web saytingizda 10 ta sahifa 5 ta rasm mavjud. Bu fayllarga har xil nomlar qo'yilgan deb faraz qilaylik. Saytingizga kimdir kirganda qaysi bir sahifa birinchi ochilishi kerak...

Qani o'ylab ko'ringchi...

Men sizga aytaman: qaysi faylning nomi **index** deb nomlangan bo'lsa ana shu ochiladi...

Demak saytimizni internetga joylash uchun [www.narod.ru](http://www.narod.ru) ning bepul hosting xizmatidan foydalanamiz.

Buning uchun [www.narod.ru](http://www.narod.ru) saytiga kiramiz

Mana u (rasmga q.)

Создайте свой сайт

- Создание сайта из готовых блоков.
- Неограниченный размер сайта.
- Бесплатная поддержка дополнительных доменов.

Делитесь файлами

- Неограниченное пространство для ваших файлов.
- Файлы хранятся не менее 3 месяцев. Время хранения можно продлевать сколько угодно раз, или оно продлевается автоматически, если файл скачивают.
- Максимальный размер файла — до 5 ГБ.
- Если ваш провайдер поддерживает программу Яндекса «Локальная сеть», ваш трафик считается по локальному та

Keyin esa “создайте свой сайт” tugmasini bosing.

Mana bunday sahifa ochiladi: (rasmga q.)

Roxatdan o'tish uchun “Зарегистрироваться” tugmasini bosning.

Keyin mana bunday sahifa chiladi.(rasmga q.)

Siz ism, familiya va login yozasiz.

UNUTMANG, siz yozadigan Login saytingizni nomi bo'ladi... ya'ni [www.saytingiz\\_nomi.narod.ru](http://www.saytingiz_nomi.narod.ru)  
Siz yozgan login faqat harflardan iborat bo'lishi shart. Bazida siz yozgan login qabul qilinmasligi mumkin.  
Buning sababi shu-ki. O'sha loginni sizdan avvalgi biror odam olgan bo'lishi mumkin.

endi “Дальше” tugmasini bosning

Mana bu oyna ochiladi. Bularni to'ldirib Ro'yxatdan o'tish tugmasini bosing (rasmga q.)

### Регистрация: шаг 2 из 2

Вы выбрали логин: **ajoyib**

Придумайте пароль:  [Как выбрать пароль](#)


Подтвердите пароль:

Секретный вопрос: **не выбран** Если вы забудете пароль, то сможете получить доступ, ответив на этот вопрос.

Ответ:

Другой e-mail: **необязательно** Этот адрес можно использовать для обращения в службу поддержки. Если вы введете адрес, на него будет выслан [запрос о подтверждении](#)

Мобильный телефон: **необязательно** Если вы забудете пароль, мы сможем отправить вам SMS с кодом для его восстановления. На следующей странице будет показана инструкция для подтверждения [номера телефона](#)

 Введите цифры слева:  
 Робот не сможет ввести цифры с картинки, а вы сможете.

[показать другие цифры](#)

Я принимаю условия Пользовательского соглашения.

Mana bunday oyna ochiladi. (rasmga q.) Rasmda ko'rsatilgan qizil strelka bilan ko'rsatilgan joyni bosing

## Яндекс

### народ

[Персональные данные](#) [Платёжные данные](#) [Помощь](#)

### Поздравляем, регистрация успешно завершена!

Ваш новый e-mail: **leonardo73@yandex.ru** [Расписание на случай сбоя](#)

Логин: **ajoyib**

Имя и фамилия: **Leonardo DiCaprio**


Дополнительный e-mail: **leonardo73@rambler.ru**

Секретный вопрос и ответ: **Любимое блюдо**

Держите ваш пароль в секрете и помните, что сотрудники Яндекса никогда и ни под каким предлогом не сообщат вам пароль по телефону или электронной почте.

### Что дальше

[Начать пользоваться сервисом Народ](#)




Рассказать о себе еще немного

Пол:  мужской  женский


День рождения:  января




Mana bunday oyna ochiladi. (rasmga q.). Bundagi “Мастерская” degan joyni bosing



Keyin esa mana bu ochiladi.(rasmga q.) Bunda “Загрузка файлов на сайт” tugmasini bosing



Mana bunday sahifa ochiladi. (rasmga q.) Ko'rib turganingizdek 10 ta tugma "Choose" nomi bilan turibdi. Bunda "Choose" tugmasini bosib web sahifamiz faylni tanlaymiz. Bizning HTML sahifamiz nomi **index** bo'lishi kerak. Agar boshqa rasmlar bo'lsa yana birorta boshqa "choose" tugmasini bosamiz va tanlab olamiz. Barcha kerakli fayllarni tanlab bo'lgach "Загрузить файлы" tugmasini bosamiz



Ana shunday qilib saytimiz ham internetga joylandi. Endi uni tekshirib ko'ramiz.

[www.sayt\\_nomi.narod.ru](http://www.sayt_nomi.narod.ru)

*saytimiz nomi ro'yxatdan o'tayitganimizda yozilgan login nomi hisoblanadi.*

Mabodo sayt ishlamay qolsa. Also xafa bo'lmang. Balkim biror narsada xato qilgandirsiz. Agar haqiqatan hech bir xato qilmagan bo'lsangiz-u ammo sayt baribir ochilmasa...

Bunda boshqa sabab bor. Qanday sabab ?

Sabab shu-ki. Bazi hollarda hostingga joylangan fayl darrov ochilmasligi mumkin. Va bir necha muddatdan so'ng albatta ochiladi.

5 daqiqadan so'ng ochib ko'ring, unda ham ochilmasa, 1 soatdan so'ng tekshiring, yana ochilmasa. Ertasi kuni ochib ko'ring...

Agar sizda savol yoki taklif bo'lsa ushbu e-mailga maktub yozing.

[Leonardo73@rambler.ru](mailto:Leonardo73@rambler.ru)

# BUNI O'QING

Siz shu paytgacha HTML boicha asosiy bilimlarni egalladingiz. Ammo bu hammasi emas. HTML dan o'rganishingiz kerak bo'lgan bilimlar hali oldinda. Ularni o'rganmay turib istagan web saytingizni yaratolmaysiz.

Balkim siz, internetdagi bazi saytlarni ko'rib havasingiz kelar. Xavotir olmang. Biz bilan qolsangiz sizning Saytingiz ulardan ham chiroyli bo'ladi. O'rganishni to'xtatmang.

Mualliflik huquqi: Ushbu kitobdan nusxa ko'chirish, tarqatish, va nashr qilish uchun muallifdan ruxsat olinishi shart. Muallif ruxsatisiz uni nashr qilish va nusxa ko'chirish qat'iyon taqiqlanadi !

Copyright © 2010. [leonardo73@rambler.ru](mailto:leonardo73@rambler.ru)